

## IKS-FEMIZMLARNING TARJIMASIDA TRANSKRIPSIYA USULI

**Kadirova Xurshida Batirovna,**

Filologiya fanlari doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: [kadirova.golden@yandex.ru](mailto:kadirova.golden@yandex.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada iks-femizmlarning tarjimasi xususida so'z boradi. Unda iks-femizmlar uchun samarasiz hisoblangan tarjimaning transkripsiya usulida ham ayrim urinishlar bo'lganligi haqida aytiladi va misollar bilan asoslanadi. Muallif ushbu tarjima usulini boshqa usullar bilan aralash holda qo'llash mumkinligini xulosa qiladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, transkripsiya usuli, iks-femizm, evfemizm, disfemizm.

**Abstract.** This article examines the translation of X-fem units. It notes that some transcription attempts have been considered ineffective for X-fem units, and provides examples to support these findings. The author concludes that this translation method can be used in combination with other methods.

**Keywords:** translation, transcription method, x-femism, euphemism, dysphemism.

**Аннотация.** В статье рассматривается перевод икс-фемических единиц. Указывается, что были предприняты некоторые попытки транскрипции, которые считаются неэффективными для икс-фем, и приводятся примеры, подтверждающие эти выводы. Автор заключает, что данный метод перевода может использоваться в сочетании с другими методами.

**Ключевые слова:** перевод, метод транскрипции, икс-фемизм, эвфемизм, дисфемизм.

Tarjimaning mukammalligi, avvalo, asliytdagi evfemizmlarning to'g'ri idrok qilinishi bilan bog'liq. Buning uchun leksik birliklar qo'llangan tor, keng va ekstralingvistik matnga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu holat doirasida I.N.Nikitina o'ziga xos misolni qayd qiladi: "*file Chapter 11* (подходить под параграф 11) evfemizmining to'g'ri tarjimasi uchun 1978-yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan bankrotlik to'g'risidagi hujjatning 11-bandi nazarda tutilayotganidan xabardor bo'lishi lozim. Agar kompaniya haqida so'z ketganda "*It filed Chapter 11*" ("11-band topshirildi") deyilsa, kompaniyaning bankrotligi tushuniladi" [1]. Shuningdek, muallif tomonidan evfemizmlarni tarjima qilishning eng keng tarqalgan usullari sifatida kalkalash, transkripsiya qilish, tavsifiy tarjimalarni sanab o'tiladi.

Tarjima usullaridan analog tanlash, leksik qo'shilmalar qo'shish, kalkalash, transkripsiya, perifraza, konkretlashtirish va modulyatsiya usullari evfemik birliklarni o'girishda samarali natijalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Bular orasidagi transkripsiya va kalkalash to'g'ridan-to'g'ri tarjima, ekvivalent tanlash, konkretlashtirish, leksik qo'shilmalar funksional tarjima usullari hisoblanadi.

Transkripsiya – og'zaki so'zlarni yozma shaklga so'zma-so'z tarjima qilish. Transkripsiya so'zi lotincha "transcriptre" so'zidan olingan bo'lib, "qayta yozish" degan ma'noni anglatadi. U turli sohalarda, lekin ayniqsa, ilmiy tadqiqotlar va tilshunoslikda qo'llaniladi. Tarjimashunoslikda ham tarjimaning transkripsiya usuli mavjud. Tarjimada transkripsiya – bu asl nusxaning leksik birligini tarjima qilish usuli bo'lib, uning shaklini maqsad tili harflari yordamida qayta yaratish orqali amalga oshiriladi. Transkripsiya qilishda chet tilidagi so'zning tovush shakli bevosita takrorlanadi.

Tarjimaning transkripsiya usuli ham alohida o'ringa ega. Biroq evfemizmlarning bu usul orqali boshqa tilga o'girilishi natijasida muallif tomonidan ijod qilingan asl matndagi evfemik ko'chim o'z effektini yo'qotib qo'yadi.

Transkripsiya – o'zga tildagi, odatda, atoqli, geografik nomlar, ilmiy terminlarni tarjima tilidagi alifbosi yordamida fonemasini yetkazish hisoblanadi. Agar u evfemik qobiqqa ega bo'lsa, uning izohi havola orqali berilishi zarur. Tarjimaning bu usuli evfemizmi tarjima tilida yetkazishda samarali emas. Shunday bo'lsa-da, Abdulla Qodiriy tilini tarjima qilishda ayrim urinishlarga duch kelish mumkin. *В начале я не хотел прислушиваться к этим словам, однако позднее осознал их правоту. В самом деле, разве на кладбище кто-либо услышит призыв “Хаййя алал-фалах” \*?// Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam, so'ngg'idan to'g'ri so'zni aytkanlarini bildim. Darhaqiqat, mozoristonda “hayya alalfalah” xitobini kim eshitar edi.* Bu qiyin sharoitda tarjimonga asqotadigan eng universal uslub bo'lib, asosan, u yoki bu ijtimoiy, geografik yoki milliy tartib-qoida boisidan tarjima tilida xos tushuncha bo'lmaganda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, odamlarning haqiqatni eshita olmasligi, shuning uchun o'liklar singari karligiga ishora bo'lgan bu evfemistik vaziyatda faqatgina transkripsiya yo'lidangina ketish mumkin, faqat unga tarjima tilida aniqlik kiritib, izoh beriladi.

Shuningdek, nutqda kishining shaxsiyatiga nisbatan salbiy munosabat bildiruvchi birliklarni yumshatish maqsadida qo'llangan o'zlashma birliklar ham evfemizm hisoblanadi. Tarjima tilida uning faqat transkripsiya yo'li bilan jonli nutq vaziyatini saqlab qolish mumkin. Masalan: *Это была княгиня Мягкая, известная своею простотой, грубостью обращения и, прозванная enfant terrible\* (\*озорницей (франц.)). / U o'zining soddaligi, qo'pol muomalasi bilan shuhrat chiqargan enfant terrible\* deb atalgan knyagina Myagkaya edi. (\*Shum.)*

Tarjimaning usullari, tarjimada qayta tuzish, tarjima transkripsiyasi, leksik-semantik modifikatsiya bo'lib, iks-femik birliklar odatda bu qoidalardan tashqarida ekanligi tarjimashunoslar tomonidan ko'p bor ta'kidlanadi. Shunday bo'lsa-da, ayrim ishlar evfemik birliklarning tarjima usullariga bag'ishlanganligini uchratish mumkin. Biroq disfemik birliklar borasida bunday deb bo'lmaydi. Disfemizmlarning ham tarjimasi evfemizm tarjimasi kabi muayyan me'yorlarga rioya qilishi lozim, tarjima usullarining qaysi biri bu hodisani boshqa tilga o'girishda samarali ekanligini tadqiq qilish kun tartibiga qo'yilishi zarur.

Tarjima nazariyasida muqobili bo'lmagan disfemik birliklarning tarjima usullari borasida monografik ishlar uchramaydi. Biroq evfemik birliklar tarjimasidagi usullarni mazkur birliklar uchun qo'llash imkoni mavjud. Tavsifiy tarjima, qo'shimcha ma'lumot qo'shish, konkretlashtirish, umumlashtirish, perifriza, kalkalash usullari shular jumlasidan.

Transkripsiya usuli fonema (yozma nutqda grafema) darajasidagi jarayon bo'lib, L.S.Barxudarov ta'kidlaganidek “manba tili va maqsad tili birliklari o'rtasidagi moslik fonema darajasida o'rnatiladi va u *amaliy transkripsiya* deb ataladi” [3]. O'zbek tilida tovush ortishi, urg'u, ohang kabilar ham disfemik (va evfemik) ma'no yuklab, tarjimada bu vositalarni hamda mazkur birlikdagi salbiy yoki ijobiy ma'nolarini berib bo'lmaydi:

Asliyat: “*Sotqi bek ketsin, Aziz bachcha deng, – dedi Homid va Akram hojiga qarab kuldi. – Yaqindag'ina Musulmon cho'loqning bazimi shu Aziz bachcha bilan qizir edi...*” [2, 6]

Tarjima: “– *Да какой это бек! Скажите лучше Азиз-бача\**, воскликнул вдруг Хамид и, посмотрев на Акрама-хаджи, усмехнулся. – *Совсем ещё недавно на празднествах хромого Мусульманкула этот самый Азиз-бача потешал гостей*” [4, 15].

(\*Бача – мальчик танцор, имевший обычно покровителей и содержателей)

Disfemik ma'noli *bachcha* birligining leksik mazmuni (*дутья, ребёнок*)dan tashqari ko'chma ma'noga egaligini tarjimon havola orqali taqdim etadi. Bu bilan disfemizatsiya jarayoni, "salbiy ta'sir" muhiti yo'qoladi. Rus madaniy muhitiga nisbatan o'zbek mental muhitida erkak kishining omma oldida raqs tushish holati qoralangani bunga sabab bo'ladi. Bunday birliklarni atoqli otlar, geografik va muassasa nomlari kabi muqobilsiz leksika qatoriga kiritish mumkin. Realiya singari transkripsiya usulida tarjima qilinib, iks-femik ma'no yuklatilmaydi.

Rus tilidan o'zbek tiliga o'girishda bunday muammo kuzatilmaydi:

Asliyat: *Наш милый самовар будет в восторге. (Самоваром он называл знаменитую графиню Лидию Ивановну за то, что она всегда и обо всем волновалась и горячилась.)*

Tarjima: *Dilkash samovarimizning boshi osmonga yetadi-da. (U mashhur grafinya Lidiya Ivanovnani hamma vaqt, hamma narsaning tashvishini yeb, hovliqib yurgani uchun samovar deb atardi.)*

Bu rus tilida transkripsiya muhtoj disfemik realiyalar yo'qligi bilan emas, mazkur badiiy asarning uyat va haqorat so'zlardan xoli bo'lganligi, rus tilidagi disfemik mazmundagi tushunchalarning o'zbek tilida tanish va muqobili bo'lganligi, shuningdek, rus tilidagi aksariyat leksik qatlam o'zbek tili lug'at tarkibida o'z o'rniga egaligi bilan belgilanadi. Yuqorida keltirilgan gapdagi "samovar" so'zining disfemik vazifasi buning yaqqol dalilidir.

**Xulosa.** Iks-femizmlarni tarjima qilishda tarjimaning turli usullaridan foydalanish mumkin. Biroq transkripsiya, konkretlashtirish usullari evfemizmi tarjima tilida yetkazishda past ko'rsatkichga ega. Analog topish usuli esa eng samarali usuldir. Shuningdek, kalkalash, leksik qo'shilmalar qo'shish orqali emfatik birlikni tarjima tilida yetkazish imkonini mavjud. Demak, tarjima jarayonida bir nechta usullardan foydalanib, ayrim hollarda transkripsiya usulini ushbu usullar bilan aralash holda qo'llash ham mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Никитина И.Н. Проблема перевода эвфемизмов экономического дискурса (на материале английского и русского языков) // Гуманитарные научные исследования. 2013. № 11 [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2013/11/5110>.
2. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, 2008. – B. 6.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: "Международ. отношения", 1975. – 240 с.
4. Кадыри А. Минувшие дни. (перевод М.Сафарова). – Ташкент, 2009.
5. Никитина И.Н. Проблема перевода эвфемизмов экономического дискурса (на материале английского и русского языков) // Гуманитарные научные исследования. 2013. № 11 [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2013/11/5110>.
6. Kadirova X. (2026). Lexical and semantic essence of euphemisms in comparative linguistics and translation studies. *Turkic Studies Journal*, 8(1), 198–213. <https://doi.org/10.32523/2664-5157-2026-1-198-213>
7. Кадирова Х.Б. Икс-фемический смысл на пересечении структурного и прагматического анализа //Э40 Научный электронный журнал «Инновации. Наука. Образование\Отв. ред. Сафронов АИ–Тольятти: – 2025. – № 117 (март). – 182 с. – URL: <http://innovjourn.ru>. – 2015.